

To'garaklar

«Nazariy va qurilish mexanikasi» kafedrasida “Yosh mexanik” to'garagi tashkil etilgan bo'lib, to'garakka texnika fanlari doktori, professor T.Mavlonov rahbarlik qilmoqda. “Yosh mexanik” to'garagiga har o'quv yilida GM, GTQ, GIM va QXM fakultetlarining iqtidorli va izlanuvchan 20-30 nafar talabalari jalb qilinib, ularga “Suv omborlari gruntli inshootlarining zilzilabardoshliligi va mustahkamligini baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqish”, “Suv bilan o'zaro ta'sirdagi gruntli gidrotexnika inshootlarining mustahkamligini baholash uslubini ishlab chiqish”, “Ekologik ob'ektlarning mustahkamligi va xavfsizligini baholash”, “Xar xil nagruzkalar ta'sirida yangi mexanik effektlarni va kuchlanganlik xolatlari bo'yicha tug'onning xavfli uchastkalarini aniqlash”, “Gruntli inshootlarning suv bilan o'zaro ta'sirini va energiyaning to'lqin ko'rinishida asos orqali chiqib ketishini hisobga oluvchi nazariy asos va hisoblash usullarini ishlab chiqish” kabi dolzarb mavzularda bahs-munozaralar, suhbatlar va amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.

2017 yil may oyida Toshkent avtomobil yo'llari institutida “Nazariy mexanika” fani bo'yicha o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida GM fakulteti SX va M yo'nalishi 3-kurs 5-guruh talabasi Sanjar Baydillaev faxrli 2-o'rinni egalladi.

Iqtidorli talabalar bilan olib borilgan ilmiy izlanish va tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy maqola va dasturlar tayyorlandi:

1. M.Mirsaidov, T.Mavlanov, Yarashev J, Toshmatov E., Abdieva G., Yo'ldosheva Sh. “BNDRP i BNDRPZ Вычисление определителя ленточной матрицы для призматических упругих и вязкоупругих конструкций” nomli EXM uchun dastur.
2. M.Mirsaidov, T.Mavlanov, Yarashev J, Toshmatov E., Abdieva G., Yo'ldosheva Sh. “SC040Z Собственные колебания вязкоупругих осесимметричных оболочечных конструкций” nomli EXM uchun dastur.
3. T.Mavlanov, E.Toshmatov, J.Yarashov, M.Xurazboev “Расчет призматических элементов гидротехнических сооружений численным методом”. Научно-практический журнал «Научно-повышение эффективности орошаемого земледелия» «Российский научно-исследовательский институт проблем мелиорации» (FGBNU «RosNIIPM»).

“Yosh mexanik” to'garagi mashg'ulotlari haftaning har payshanba kunlari soat 1500 dan 1620 gacha institutning B o'quv binosi 323-auditoriyasida o'tkaziladi.

To'garak rahbari prof. T.Mavlonov

Ma'lumot uchun telefon: 237-09-81